O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKLI VA VOSITALARI

Davlataliyeva Zarina Asqarali qizi
Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchi (PhD)
Email: zarinadavlataliyeva190@gmail.com. telefon: (998) 93 009 92 96

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda matnlarni kommunikativ o'qish kompetensiyasi kognitiv va leksik xususiyatlari sifatli va miqdoriy usullar yordamida o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya ko'pincha tushunishni yaxshilash uchun o'qish ko'nikmasini rivojlantiradigan lingvodidaktik usullar qo'llash orqali rivojlanadi. Aynan kasbga yo'naltirilgan maqsadda chet tilini o'rganish esa shu sohaga oid terminlarni ham o'rganish zaruriyatini qo'yadi. Ushbu terminlarning morfologik murakkabligi, semantik munosabatlari va sintaktik rollari ularning texnik kommunikatsiyadagi muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu xususiyatlarga qaratilgan ta'lim mashqlari terminologik kompetentlikni oshirishi mumkin, shu bilan birga, professional mutaxassislar bu jihatlarni chuqurroq tushunish orqali kommunikatsiya va hujjatlash amaliyotlarini yaxshilashlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ kompetensiya, kognitiv lingvistika, leksik tahlil, morfologik tahlil, semantik tahlil, sintaktik tahlil, texnik leksika.*

СОДЕРЖАНИЕ, ФОРМА И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ

Аннотация: *В данном исследовании изучаются когнитивные и лексические характеристики терминологии робототехники с использованием качественных и количественных методов. Результаты показывают, Коммуникативная компетентность часто развивается посредством использования лингводидактических методов, развивающих навыки чтения для улучшения понимания. Изучение иностранного языка в профессиональных целях также требует изучения терминов, связанных с этой областью. Образовательные упражнения, направленные на изучение этих особенностей, могут повысить терминологическую компетентность, а профессионалы могут извлечь пользу из более глубокого понимания этих аспектов для улучшения коммуникации и практики документации.*

Ключевые слова*: коммуникативная компетентность, когнитивная лингвистика, лексический анализ, морфологический анализ, семантический анализ, синтаксический анализ, техническая лексика.*

CONTENT, FORM AND MEANS OF DEVELOPING READING SKILLS

Abstract: *This study explores the cognitive and lexical characteristics of communicative reading competence through a combination of qualitative and quantitative methods. Findings reveal that communicative competence is often developed through the use of linguo-didactic methods that develop reading skills to improve comprehension. Learning a foreign language for professional purposes makes it necessary to learn terms related to this field. The morphological complexity, semantic relationships, and syntactic roles of these terms underscore their importance in technical communication. Educational exercises targeting these features can improve terminological competence, while professionals can benefit from a deeper understanding of these dimensions for better communication and documentation practices.*

Keywords*: communicative competence, cognitive linguistics, lexical analysis, morphological analysis, semantic analysis, syntactic analysis, technical vocabulary.*

KIRISH

Talabalarga o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish uchun maxsus o‘qish strategiyalari (teaching specific reading strategies) ko‘plar olimlar tomonidan chuqur o’rganilgan va ulardan aynan nofilologik yo‘nalish talabalari uchun muqobil va samaralisini tanlash oldimizdagi pirovard masaladir. Keene va Zimmermann(1997) ta’kidlashicha malakali o‘quvchilar(proficient readers) ustida olib borilgan izlanishlar shuni ko’rsatadiki, malakali o’quvchilar muntazam atigi 7-8ta o‘qish strategiyalaridan foydalanishadi [1] (Keene, E.O& Zimmerman,S (1997). Mosaic of thought: Teaching comprehension in a reader’s workshop. Portsmouth, New Hampshire: Heinemann.(p.22)). O‘quvchilar (readers) ustida tadqiqotlardan aniqlanishicha, malakali kitobxonlarda bir xil kognitiv strategiyalar qayta sodir bo‘ladi. Eng muhim jihati shundaki, agar o‘qituvchilar talabalarga an’anaviy ko‘nikmalardan ko‘ra zamonaviy aqliy strategiyalarni o‘rgatsa, matnlarni mustaqil tushunadigan va taxlil qila olish qobilyatiga ega bo’ladigan mahoratli o‘quvchiga aylanadi. Talabalar orasida uchraydigan muomolardan biri bu ular o’qigan matn bilan o‘zaro aloqa va tushuncha hosil qilmay o‘qishidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Matnlarni kommunikativ o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalarini o’rgatish orqali talabalarda adabiyot bilan o‘zaro aloqaga kirishish va uni chuqur anglash ko’nikmasi shakllanadi. Talabalarga o‘rgatish samarali deb hisoblangan eng asosiy strategiyalar:

*o‘zaro bog‘lash (making connections),

*savol berish(asking questions),

*taxmin qilish (making predictions)

Yuqorida sanab o'tilgan strategiyalar mahoratli o'quvchi(reader) bolish uchun kalit strategiyalar hisoblanadi. Bu uchta strategiya o'quvchini berilgan matn haqida o'ylashga majbur qiladi va bu orqali talaba o'qigan matnidagi ma'noni yaratish qobilyatiga ega bo'ladi. Talaba bu uchta strategiyani mukammal o'zlashtirish orqali matnni chuqurroq tahlil qiladigan yuqori tanqidiy fikrlash strategiyalarini o'rganishi uchun poydevor vazifasini o'taydi.

O'zaro bog'lash (making connections) strategiyasi talabalarga o'qigan narsasini real hayotiy tajribalar va boshqa matnlar bilan bog'lash va taqqoslash vazifasini o'taydi. Tushunish qobilyatini oshirishning eng samarali usullaridan biri o'qishdan oldin "aqliy fayllarni" (mental files) harakatga keltirish hisoblanadi [2] (Tovani,C.(2000) I read it, but I don't get it: Comprehension strategies for adolescent readers. Portland, Maine:Stenhouse.(p.64).)"Aqliy fayllar" esa o'quvchining dastlabki bilim va hayotiy tajribalarni o'z ichiga oladi. Bu usul ayniqsa texnika oliy o'quv yurt talabalari uchun judayam foydali hisoblanadi chunki avvalgi olgan bilimlarini va tajribalarini yangi oladigan ma'lumotlar bilan o'zaro bog'lash orqali o'rganish ulardan shu sohaga oid kasbiy bilimlarni talab qiladi. Agar ma'lumotlar shunchaki alohida o'rganilsa va ularni o'quvchi o'zida mavjud bo'lgan bilimlarga bog'lamasa, ular osonlikcha unutiladi va shunchaki keraksiz ma'lumotdek esdan chiqadi [3](Keene, E.O& Zimmerman,S (1997). Mosaic of thought: Teaching comprehension in a reader's workshop. Portsmouth, New Hampshire: Heinemann.(p.51)) Biz o'qigan har qanday ma'lumot ham albatta birdek muhim emas. Ma'lumotlarni muhimligini aniqlashning eng yaxshi usuli uni hayotimizga bog'liqlik darajasini aniqlash hisoblanadi. Shuning uchun biz talabalarga matnlarni o'zaro bog'lash strategiyasini o'rgatsak, ularga yangi materiallarni yaxshiroq tushunish va eslab qolishda samarali yordam bergan bo'lamiz. O'zaro bog'lash strategiyasining ahamiyati shundaki, agar talaba matndagi qahramon bilan bir xil tajribaga ega bo'lsa ya'niki qisman bo'lsada hayotida unga o'xshash voqealarga duch kelgan bo'lsa, matndagi qahramonning harakatlari, o'y-hayollari va his-tuyg'ularini tushunish orqali berilgan topshiriqni mukammal bajarishi mumkin.[4] (Harvey,S& Goudvis,A (2000). Strategies that work: Teaching comprehension to enhance understanding. York, Maine: Stenhouse.(p.21).) Umumiy olganda, o'quvchi o'qiyotgan mavzusini u haqida bazi bir boshlang'ich bilimi va ma'lumoti bo'lsagina yanayam yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

MUHOKAMA

O'qish- ingliz tilini o'rganuvchilar orasida tildagi qobilyatini va imkoniyatini ochib beradigan eng muhim qismi hisoblanadi. Talabalar orasida ingliz tili darslarida o'qish kompeteniyasiga oid mashq deyilganda ko'pchilik talabalar uzun matnlarni o'qish, yangi so'zlarni o'rganish, bir qancha savollarga javob berish deb tushunishlari tabiiy. Lekin o'qishni(reading) mashq qilish bizga ko'plab ko'zdan kechirish(skimming), ma'lumot olish uchun o'qish(scanning), o'qiganidan to'g'ri xulosa qilish(inferring information) va boshqa amaliyotlardan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Tadqiqotimiz davomida an'anaviy dars jarayonlarini chetlab o'tgan holda, darslarni bir qancha mashg'ulotlar va amaliyotlar yordamida uni qiziqarli va barchani jalb eta oladigan faoliyat turiga aylantirish usullarini taxlil qilishni foydali deb topdik. Bizni o'rganish faoliyatimiz aqliy qobilyatimizga bog'liq bo'lgani uchun, qachonki biz yaxshi kayfiyatda bo'lsakkina yaxshiroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.o'yinlar orqali o'rganish esa talabalarning ongiga ijobiy o'rganish daqiqalarini ochadi va uni "eng zo'r o'rganish vaqtlari" (best learning moments) desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu ijobiy aqliy jarayon esa o'quvchida qiziquvchanlik, o'ziga jalb qilish, xursandchilik kabi emotsiyalarni optimism, ishonch va xotirjamlik bilan bir paytda yuzaga keladi. Darsdan zavqlanish hissi esa talabalarga yangi o'rgangan bilimlarini uzoq vaqt eslab qolishga yordam beradi. Talabalarga o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali usullardan biri bu o'yinlar(gamify) orqali (ya'ni ularni ko'proq mashg'ulotlar, jarayonlar yoki topshiriqlar desak maqsadga muvofiq bo'ladi.) rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va samarali usulidir. Odatiy tarqatma materiallar va uzun matnlardan iborat qo'llanmalardan ko'ra, kommunikativ o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda darslarni talabalar orasida do'stona musobaqalar, interfaol usullar va mashg'ulotlar yordamida tashkil etish, ma'lumotlarni esda qolishiga va darslarni unumli bo'lishiga sabab bo'ladi.

- O'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun darslarda imkon boricha ko'proq mavzuga oid rasmlar, diagrammalar, jadvallar va qo'shimcha materiallardan foydalanish nafaqat darslarni rang-barang qiladi, balki uni yaxshiroq tushunishga ko'mak beradi ayniqsa talabalar orasida visual o'rganuvchilar bo'lsa.

Albatta bunda talabalarning yoshiga, til darajasiga va o'rganish maqsadiga moslab mashg'ulotlar tanlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar darsda foydalanilayotgan o'qish ko'nikmasini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishni o'rgangani sari, auditoriyada ular orasida aktiv va ijobiy aloqa shakllanib boradi va bu esa o'z o'rnida o'qituvchiga shaxsiy o'qishni rivojlantiruvchi yangi mashqlar yaratish imkonini beradi.

Tavsiyalarning keyingi bloki o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha bo'lib bu o'rinda asosiy vazifa sifatida o'rganuvchilarning notanish autentik

matnlarni o'zgalarning yordamisiz talab qilingan tezlikda va faoliyat turiga mos keladigan daraja hajmda tushunishi qabul qilingan.

Dj.Shultsning ta'kidlashicha, tayanch mustaqil (autonomous) o'rganuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadning xarakteriga ko'ra turli o'qish strategiyalaridan foydalanishi mumkin, ya'ni birlamchi yuzaki o'qitishdan tanishtiruvchi o'qishga o'tish yoki batafsil axborot olish uchun o'qishning boshqa strategiyalarini tanlashi va bu o'z navbatida maqsadlarning adekvatligi haqida hukm chiqarish turli tildagi matnlarni o'qish metodikasi turlicha bo'ladi va o'quv faoliyatining quyidagi uch turi bo'yicha farqlanadi:

1. o'qishgacha bo'lgan faoliyat tur lari: pre-reading activities;
2. o'qish paytidagi faoliyat turlari (while-reading activities);
3. o'qishdan keyingi faoliyat turlari (post-reading activities).

Matngacha bo'lgan bosqichda quyidagilar tavsiya etiladi:

1)tayanch so'z va iboralar, suratlar, fotografiyalar, sxema, sarlavha va kichik sarlavhalar yordamida o'qish rejalashtirilayotgan matn mazmuni haqida birlamchi faraziy axborot beriladi;

2) matndagi voqea-xodisalarga fon bo'lib xizmat qilish mumkin bo'lgan fon xarakteridagi zaruriy informatsiya beriladi;

3)matn variantini soddalashtirish va qisqartirish;

4)qismlari bir biriga ajratib yuborilgan parchalari va matn parchalarini qayta terib chiqish;

5)tarkibida kalit so'zlar va iboralar bo'lgan o'xshash matnni tahlil qilish;

6)o'rganilgan va muhokama qilingan mavzu bo'yicha radio, TV dagi axborotni mazmunini keyinroq gazetalarda bosib chiqargan maqola va xabar mazmuniga qiyoslash;

7)shunga o'xshash ona tilidagi matnni keyinchalik xorijiy tildagi varianti bilan qiyoslash maqsadida tinglash;

8) matnni tizimlovchi sxema shaklida ifodalash (grid);

9)egallangan bilim va tajriba asosida matnda qanday yangi axborot bo'lishi mumkinligini tahlil qilish;

10)"Miyaga shturm" vaqtida taklif qilingan mavzuning asosiy jihatlarini tushungan holda o'z fikrini bildirish;

11)o'qituvchi tomonidan muayyan bir mavzu bo'yicha keltirilgan argumentlarga o'z fikrini bildirish yoki e'tiroz bildirish;

12) kalit so'zlar va mavzuning variantlari yordamida matn mavzusi va mazmunini tahlil kilish;

13) kalit so'zlar yoradamida berilgan mavzu bo'yicha birlamchi o'z matnini tuzish va matndagi voqea-xodisalar ketma-ketligini taxmin qilish;

14) berilgan fotosurat, tasvir yoki gazeta sarlavhasiga asosan matn tuzish va uni original matn bilan kiyoslash.

NATIJALAR

Darsdagi talabalar soniga, qiziqishiga va ularning til bilish darajasidan kelib chiqib quyidagi mashqlar va o'yinlardan foydalanish mumkin:

⇒ Pre-reading vocabulary games (search for the synonym, word hunt, word pairs)

⇒ O'qishdan oldingi so'z o'yinlari (sinonimlarni topish, so'z topish, juft so'zlar)

⇒ True/false type of activities (guessing games, races)

⇒ To'g'ri/noto'g'ri shakldagi mashq turlari (taxmin qilish mashqi, musobaqa)

⇒ Sequencing activities (drawing, picture story, puzzles)

⇒ Ketma-ketlik mashqlari (chizish, hikoya tasviri, jumboqlar)

⇒ Retelling activities (role-plays, summarizing a story)

⇒ Qayta aytib berish mashg'ulotlari (rolli o'yinlar, hikoyani xulosalash)

⇒ Making predictions (guessing games, charts)

Oldindan taxmin qilish (taxmin qilish mashqlari, jadvalli mashqlar)

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu har darsda yangi metod va texnologiyalardan unumli foydalanish hisoblanadi. Quyida matnlarni kommunikativ o'qish kompetensiyasini rivojlantiruvchi ba'zi bir mashg'ulotlar (activities) va usullarga to'xtalib o'tganmiz.

True or false race (To'g'ri yoki noto'gri musobaqasi)

"Competition is always a good thing. It forces us to do our best." (Musobaqa eng yaxshi narsadir. U bizni eng zo'rini qilishga undaydi).[5](Pearcey, Nancy. "Nancy Pearcey". Archived from the original on October 17, 2013. Retrieved July 19, 2013.) Mashg'ulotni bu turida sinfdagi talabalarni ikkita guruhga ajratamiz. To'rtta kartichka olamiz va uni ikkitasiga "true" so'zini yana ikkitasiga "false" so'zini yozib, guruhga bittadan "to'g'ri" va bittadan "noto'g'ri" so'zi yozilgan qog'ozni tarqatamiz. O'qituvchi esa berilgan matndan turli jumlalarni o'qiydi. Qaysi guruh birinchi bo'lib to'g'ri kartichkani ko'rsatsa shu guruhga bal yoziladi. Mashg'ulot so'ngida yig'ilgan ballarga qarab g'olib guruh aniqlanadi. Bu nafaqat o'qish kompetensiyasini oshirishga undan tashqari jamoa bo'lib birgalikda ishlashga va tezkor qaror qabul qilish qobilyatini oshirishga ham yordam beradi.

Text scavenger hunt(matnni tozalash mashg'uloti)

Bu post-reading mashg'ulot turi hisoblanadi va berilgan matnga oid turli savollar yoki tayyorlanadi va talabalar maqoladan yoki berilgan matn ichidan kalit so'zni "hunt" qilib topishi kerak. Bu savollar so'zlarga oid bo'lishi mumkin ("look for the synonym of "challenging" in the first paragraph") yoki kalit so'zni toping("How many types of temperature scales commonly used today?"). berilgan matnni o'qigandan so'ng, o'qituvchi unga oid savollarni o'qiydi va har bitta talaba o'z javobini qayd etib borishi kerak. Mashg'ulot so'ngida esa to'g'ri javob o'qib beriladi va har bir talaba to'g'ri bajarganmi yoki yo'qligini tekshirib boradi.

Matnga oid savollarni 1 dan 6 gacha raqam qo'yib belgilab olish va talabalar savol tanlashda  shashqol(dice) dan foydalanib ularga javob berishi ham darsni qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bunda "virtual dice" virtual shashqoldan foydalansa ham bo'ladi.

XULOSA

Matn ustida ishlash bosqichida bular qatoriga, ma'nosini anglab yetish, savol-javob ishi, til birliklarini tanish, qismlarni moslashtirish, parchalardan butun matn tarkib toptirish, ko'rsatmalarini qiyoslash, konspektlashtirish, gaplarni yakunlash yoki qator qabul qilish va bajarish, muammoli situatsiyalar, topshiriqlar va mashqlar tavsiya etiladi. Matndan keyingi bosqichda til o'rganuvchi ta'lim oluvchi yoki talabalarga topshiriklar beriladi: matn mavzusi yoki predmetiga o'z munosabatini bildirish, matnda muhokama qilingan mavzuga talaba uz shaxsiy hayotida uchragan voqea, hodisa yoki vaziyat bilan qiyoslash; matnning turlicha tahlil qilinishi bo'yicha muhokama kilish va fikrlarni argumentlash; matn ustida turli shakldagi transformatsiyalarni amalga oshirish va uni sahnalashtirish, rolli o'yinlar tashkil qilish, yozuvchi bilan intervyu shaklida matnni muhokama qilish; o'rganilgan matnga o'xshatib yangi matn tuzish, matn mazmunini tematik jihatdan kengaytirish yoki turli tafsilotlar qo'shish; matnga o'z munosabatini bildirish yoki matnda tasvirlangan voqea-hodisalarni o'z hayotida kuzatilgan voqealar bilan boyitish; matn mazmuniga yaqin keladigan turli jurnaldan olingan fotosurat, internet saytlaridan olingan turli tasvir yoki epizodlar bilan boyitish; matnni kalit so'zlaridan foydalangan holda qayta tuzish; rezyume yozish, grammatika va leksikani o'rganish matnda ishlatilgan so'zlarning sinonim va antonimlarini topish va h.k.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Keene, E.O& Zimmerman,S (1997). Mosaic of thought: Teaching comprehension in a reader's workshop. Portsmouth, New Hampshire: Heinemann.(p.21).

2. Tovani,C.(2000) I read it, but I don't get it: Comprehension strategies for adolescent readers. Portland, Maine:Stenhouse.(p.64).

3. Harvey,S& Goudvis,A (2000). Strategies that work: Teaching comprehension to enhance understanding. York, Maine: Stenhouse.(p.21).3. Dubuc, R. (1997). Terminology: A Practical Approach. Canada National Library.

4. Budileva, V. S. (2002). Characteristics of Terms as a Basis for Their Classification. M.: Osnova.

5. Pearcey, Nancy. "Nancy Pearcey". Archived from the original on October 17, 2013. Retrieved July 19, 2013.

6. Davlataliyeva Z. The Interaction between Fluency, Vocabulary and Comprehension for improving reading skill. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics Volume: 02 Issue: 04 April-2023 ISSN: 2835-1924 B:87-89

7. Davlataliyeva Z. Pedagogical needs and usefulness of reading fluency for teaching foreign language. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics Volume: 02 Issue: 04 April-2023 ISSN: 2835-1924 B:84-86

8. Davlataliyeva Z. Technical translation as a significant communicational bridge for reading comprehension. In an International Educators Conference, Volume: 02 Issue: 22 April-2024 ISSN: 2835-396x B:109-113

9. Nicole, K. (2010). Integrating Multi-Word Terms in Terminology Management Systems: A Case Study. Wissenschaftlicher Verlag Trier.